

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PEDAGOGIK KASBGA BO‘LGAN  
YONDASHUVLAR VA UNING RIVOJLANISH YO‘LLARI**

Bo‘riyeva Shohzoda Norqobil qizi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat  
pedagogika universiteti talabasi

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 24.02.2025

Revised: 25.02.2025

Accepted: 26.02.2025

**KALIT SO’ZLAR:**

pedagogik  
texnologiyalar, kasbiy  
yondashuv, pedagogik  
tadqiqotlar, kasbiy  
faoliyat, ijtimoiy  
kompetensiya, ilmiy  
tadqiqot.

Mazkur maqola boshlang‘ich ta’limda pedagogika kasbiga bo‘lgan yondashuvlar va uning rivojlanish yo‘llarini tahlil qilishga qaratilgan. Ta’lim tizimining samaradorligi o‘qituvchining professional faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘lib, pedagogik yondashuvlar o‘qituvchining bilim berishdan tashqari o‘quvchilarning shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qilishi ko‘rsatilgan.

**KIRISH.** Bugungi kunda jadallik bilab rivojlanib borayotgan axborotlashtirish tizimi jamiyatimizning barcha sohalari qatorida ta’lim sohasini ham qamrab olmoqda. Ta’lim sohasi – bu jamiyatni rivojlantirish, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda yuksak maqsadlarga erishish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish va ularga asoslangan tizimdir. Ta’lim sohasida muhim o‘rin tutgan omil – bu pedagoglar, ya’ni o‘qituvchilar va murabbiylar. Ularning faoliyati o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni axloqiy va shaxsiy jihatdan tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega. Pedagoglar o‘z kasbini amalga oshirishda bilim, tajriba va ijtimoiy-ma’naviy fazilatlarni namoyon etishlari kerak.

Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti sifatida, ta’lim tizimini isloh qilish, uning sifatini oshirish, shuningdek, pedagoglar kasbini yuksaltirish bo‘yicha bir qancha muhim fikrlarni bildirgan. Uning pedagoglarni kasbga yo‘naltirish va ta’lim sohasini

rivojlantirish borasidagi fikrlari ta'lim sifatini yaxshilashga, o'qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirishga, va ularning ijtimoiy ahamiyatini oshirishga qaratilgan[3].

Mustaqil O'zbekistonimizda uzlusiz ta'lim tizimini isloh qilinishi, yangi ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Pedagogik faoliyat-bu o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional aktivligidir<sup>58</sup>.

### ASOSIY QISM

Boshlang'ich ta'lim — bu jamiyatni yanada rivojlantirish va avlodlar o'rtasida bilimlar, axloqiy qadriyatlar hamda madaniyatlarni uzlusiz tarzda o'tkazishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, boshlang'ich ta'limning samaradorligi pedagoglarning professional tayyorgarligi, pedagogik kasbga bo'lgan yondashuvi va metodikalariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Pedagogik kasbga yondashuvar, o'z navbatida, pedagogning ta'lim jarayonida qanday faoliyat ko'rsatishini, o'quvchilarga qanday munosabatda bo'lishini, o'z o'quvchilari bilan qanday o'zaro aloqada bo'lishini belgilaydi. Pedagogik yondashuvlarning samaradorligi uning asosiy prinsiplariga, pedagogning shaxsiy sifatlariga, o'qituvchilik ishiga yondashuvining falsafasiga bog'liqdir[4].

Aytish joizki, noan'anaviy ish usullari orqali pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, innovatsion qobiliyatini rivojlantirishi yangi g`oyalari va yangicha shijoat bilan faoliyat olib borishi, mazmunli dam olishi, qiziqarli va foydali faoliyatlar bilan kun tartibining boyitilishi o'ta dolzarb va muhim vazifalardan bo`lib hisoblanadi. Demak, pedagoglarning ta'limiy jarayonlardan tashqari vaqtini sermazmun o'tkazish, ularning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan hordiq chiqarishlarini ta'minlash, ular ongiga milliy g`oyani, vatanparvarlik tuyg`ularini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish pedagoglarning kreativ potensialiga ko`p jihatdan bog`liq bo`lib hisoblanadi<sup>59</sup>.

Bolibekov Alisher o'z maqolasida “ Biz mutaxassis, ya'ni pedagogning o'z kasbiy kompetentligini oshirishi uchun o'z-o'zini tahlil qilishi, o'z ustida ishlashi va o'z-o'zini

<sup>58</sup>

<file:///E:/maqolalar/kasbiy%20pedagogika%20mavzusidagi%20%20maqolam/Askarova+Fotima+++Araboy+qizi+.pdf>

<sup>59</sup> [https://jdu.uz/creatived-yondashuv-asosida-pedagogning-innovatsion-qibiliyatini-rivojlantirish/](https://jdu.uz/creatived-yondashuv-asosida-pedagogning-innovatsion-qobiliyatini-rivojlantirish/)

baholay olishi kerak degan edik. Bular orasida o‘z ustida ishslash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassisning o‘z ustida ishlashi quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir bo‘lajak pedagog o‘z kasbiy kompetentligini anglab yetishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, o‘zini- o‘zi baholay olishi ,ta’lim jarayonining jadal sur’atlarda o‘sishini ta’minlashi kerak. Qachonki pedagog o‘zini to‘g‘ri va xolis baholay olsagina, u o‘z sohasida yetuk mutaxassis bo‘lib yetishadi”<sup>60</sup>.

O‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

- 1) O‘qituvchining shaxsiy fazilatlar bo‘yicha tayyorgarligi.
- 2) O‘qituvchining ruhiy – psixologik tayyorgarligi.
- 3) O‘qituvchining ijtimoiy – pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi.
- 4) O‘qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi[1].

Boshlang‘ich ta’limda pedagogik kasbning rivojlanish yo‘llari doimiy yangilanish va o‘zgarishni talab qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodikalarning rivojlanish yo‘llari quyidagi omillarga asoslanadi:

**1. Pedagogik texnologiyalarni joriy etish:** Internet va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Masofaviy ta’lim, onlayn kurslar, multimedia vositalari va interaktiv ta’lim platformalari pedagoglarning ishini soddalashtirish va yanada samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Pedagoglar uchun bu yangi metodlarni o‘rganish va joriy etish o‘zgaruvchan talablar bilan muvofiqlikni ta’minlaydi.

**2. Pedagogik ta’lim va metodikalarni rivojlantirish:** Pedagoglarning malakasini oshirish va yangilab borish doimiy ravishda zarur. Pedagogik kasbning o‘zgaruvchan xususiyatlarini hisobga olib, o‘qituvchilar uchun turli seminarlar, treninglar va pedagogik

<sup>60</sup> <file:///E:/maqolalar/kasbiy%20pedagogika%20mavzusidagi%20%20maqolam/Bolibekov+Alisher+Abdusalomovich+2.pdf>

tajribalarni almashish imkoniyatlari taqdim etilishi kerak. Bu pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi.

**3. Pedagogning shaxsiy rivojlanishi:** Pedagogik kasbda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarga bilim berishi, balki o‘z shaxsini ham rivojlantirishi zarur. Pedagogning psixologik va ijtimoiy kompetensiyalari, uning o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati, hissiy intellekti ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

**4. Pedagogik tadqiqotlar va ilmiy yondashuvlar:** Pedagogik kasbning rivojlanishida ilmiy tadqiqotlar va yangi pedagogik nazariyalar muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayonida yangi ilmiy yondashuvlar va metodlar sinovdan o‘tkazilishi va amaliyotga joriy etilishi kerak[5].

Jumayeva Muxlisa kasbiy rivojlanish borasida o‘z maqolasida “Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar o‘qituvchining malakasini oshirishni talab etadi. Ya’ni uning kasbkor darajasini, yoki kasbiy kompetentligini oshirishni talab etadi. Hozirgi jamiyatning asosiy vazifasi – shaxsning faol va perspektivadagi jamiyat va davlatning talablariga javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxsni tayyorlash, jamiyatning sotsial adaptatsiyaga mos qobiliyatga ega kasbiy faoliyatni boshlashga tayyor, o‘z-o‘zini bilimini, malakasini oshirishga qobiliyatli kadrlarni tayyorlash. Mustaqil fikrlaydigan, faoliyatining natijasini proqnozlay biladigan, ma’lumot jarayonini modellashtira oladigan pedagoggina oldiga qo‘ylgan maqsadini amalga oshira oladi. Shuning uchun ham hozirgi davrda mustaqil, ijodiy fikrlaydigan, raqobatbardosh, hozirgi tinimsiz rivojlanib borayotgan talablarga javob beradigan shaxsni tarbiyalaydigan o‘qituvchiga talab oshmoqda”<sup>61</sup>.

Boshlang‘ich ta’limda pedagogik kasbga bo‘lgan yondashuvlar va uning rivojlanish yo‘llari ta’lim tizimini yangilash va takomillashtirishning asosiy qadamlaridan biridir. Pedagoglarning malakasini oshirish, yangi texnologiyalarni qo‘llash, shaxsiy rivojlanish va ilmiy tadqiqotlar orqali ta’lim jarayonini samarali qilish mumkin. O‘qituvchi o‘z kasbiga yangicha yondashuvni o‘zlashtirib, zamonaviy pedagogik metodlar asosida ta’lim jarayonini rivojlantirishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi[2].

## XULOSA

<sup>61</sup> <file:///E:/maqolalar/kasbiy%20pedagogika%20mavzusidagi%20%20maqolam/3560-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-8531-1-10-20240707.pdf>

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishim kerakki, boshlang‘ich ta’limda kasbiy pedagogikaning rivojlanishi jamiyatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimining samaradorligi, o‘quvchilarning yuksak bilim va ma’naviyatga ega bo‘lishi, bevosita boshlang‘ich ta’limdagi pedagoglarning malakasiga bog‘liq. Ularning kasbiy faoliyatini rivojlantirish orqali nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularning axloqiy va shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo‘sish mumkin.

Boshlang‘ich ta’limda kasbiy pedagogikaning rivojlanishi uchun, avvalo, o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish, zamonaviy pedagogik metodlar bilan tanishtirish, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish zarur. Shuningdek, pedagoglarga rag‘bat va qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatilishi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, va ularning kasbiy rivojlanishiga imkoniyatlar yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limning yuqori sifatini ta’minlash uchun o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, shaxsiy axloqiy fazilatlari, hamda o‘quvchilarga bo‘lgan yondashuvi o‘ta muhimdir. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limdagi kasbiy pedagogikani rivojlantirishga oid sa'y-harakatlar nafaqat o‘quvchilar, balki butun jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi[6].

Bu borada amalga oshirilgan islohotlar va yangiliklar ta’lim tizimining sifatini oshirishga, pedagoglarning kasbiy yuksalishiga va natijada, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga olib keladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. A’zam Xoliqov. “Pedagogik mahorat” darslik. Toshkent .2011
2. Nazarov, B. “Boshlang‘ich ta’limdagi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish”. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.2017
3. Shavkat Mirziyoyev . O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari.2017
4. Xudoyberanova, D. (2018). Pedagogik faoliyatni tashkil etish: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.
5. Toshmatov, R. “Pedagogik kompetensiya va uning boshlang‘ich ta’limda rivojlanishi” Toshkent: “Ta’lim va taraqqiyot” nashriyoti.2018
6. Mirzayeva, S. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar: boshlang‘ich ta’limda joriy etilishi. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.2019